QADIMGI TURKIY TIL LEKSIKASIDA TOVUSH SILJISHI JARAYONINING FONOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI

Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. TDSHU.
E-mail: maruf_dust@mail.ru
ORCID: 0009-0003-4954-9504
https://doi.org/10.5281/zenodo.19855588

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qadimgi turkiy til leksikasida kuzatiladigan tovush siljishi jarayonining fonologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kädim, atlïγ, yadaγ, yaγï, čärig, čabïš kabi leksemalar misolida tarixiy fonetik o‘zgarishlar, xususan d > δ > y, g > v, agï > av kabi fonologik almashinuvlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu o‘zgarishlarning turkiy tillar taraqqiyotidagi o‘rni hamda hozirgi o‘zbek tilidagi davomiyligi ilmiy jihatdan izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *qadimgi turkiy til, tovush siljishi, fonologik o‘zgarish, leksema taraqqiyoti, tarixiy fonetika.*

Abstract. *This article analyzes the phonological features of sound shifts in the lexicon of the Old Turkic language. The study examines historical phonetic changes based on lexemes such as kädim, atlïγ, yadaγ, yaγï, čärig, and čabïš. Particular attention is paid to phonological transitions like d > δ > y, g > v, and agï > av. The paper also explains the role of these processes in the development of Turkic languages and their preservation in modern Uzbek.*

Keywords: *Old Turkic language, sound shift, phonological change, lexical development, historical phonetics.*

Аннотация. *В статье рассматриваются фонологические особенности звуковых сдвигов в лексике древнетюркского языка. На примере лексем kädim, atlïγ, yadaγ, yaγï, čärig и čabïš анализируются историко-фонетические изменения, такие как d > δ > y, g > v и agï > av. Также освещается роль данных процессов в развитии тюркских языков и их отражение в современном узбекском языке.*

Ключевые слова: *древнетюркский язык, звуковой сдвиг, фонологическое изменение, развитие лексики, историческая фонетика.*

Qadimgi turkiy til turkiy tillar tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu davr yodgorliklari tilning fonetik, leksik va grammatik taraqqiyot bosqichlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, qadimgi turkiy til leksikasida kuzatiladigan tovush o‘zgarishlari va siljish jarayonlari turkiy tillarning tarixiy rivojlanishini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday fonologik o‘zgarishlar so‘zlarning shakli va ma’nosining taraqqiy etishida muhim omil bo‘lib, keyingi davr turkiy tillarida, jumladan, hozirgi o‘zbek tilida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Ko‘kturk va O‘tukan Uyg‘ur turkiy bitiglarida “zirh, harbiy kiyim – sovut, bargustuvon, jabduq” ma’nolarida qo‘llangan *kädim* termini qadimgi turkcha *käd-* – “kiymoq” asosidan fe’ldan ot yasovchi *-im* qo‘shimchasi bilan yasalgan. “Leksema taraqqiy etib *käd-* > *käδ-* > *käy-* > *kiy-* tarzida o‘zgargan. Hozir halach turkchasida ushbu leksema *käd-* shaklida talaffuz qilinadi va yoziladi”[1]. Hozirgi o‘zbek tilida esa *kiy-* shaklidadir. *kädim* “Qutadg‘u bilig”da ham tilga olinib, “oddiy maishiy kiyim” ma’nosida ishlatilgan. Bundan leksemaning

[1] *Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 267.*

ushbu davrdan ma’no kengayishiga uchraganini ko‘rish mumkin. Qolaversa, asarda leksema tarkibidagi *d* fonemasining *δ* shaklida qo‘llanilgani kuzatiladi: *“äginkä kädim-mä boγuzqa yämi käräk* – Eginga – kiyim, bo‘g‘izga ovqat kerak” (QBH, 104_{29}). Shuningdek, asar matnidan *kädti // käδti* – “kiydi”, *kädgüsi* – “kiyimi”, *kädgülük* – “kiyimlik”, *käδüt* – “kiyim, xalat” kabi so‘zlar ham joy olgan. Kul Tegin bitigida *kädim*ga *-lïγ* qo‘shimchasini qo‘shishdan hosil bo‘lgan *kädimlïγ* – “sovutli, zirhli” derivati ishtirok etgan.

Matnlarda *atlïγ* – “otliq”, “suvoriy” termini mavjud bo‘lib, ushbu istiloh *at* va *-lïγ* – (asosdan anglashilgan narsaga egalikni bildiruvchi sifat yasovchi qo‘shimcha)ning qo‘shiluvidan yasalgan. Hozirgi o‘zbek tilida ham *otliq* so‘zi xuddi shunday morfemik tarkibda ikki ma’noda qo‘llaniladi. Birinchisi *otliq* – “suvoriy”, ikkinchisi *otlik* < *ot-li* – “otli, oti bor kishi” (O‘TIL, I, 156). Mahmud Koshg‘ariy istilohni *atlïγ* shaklida keltiradi: *atlïγ är* – “otliq odam” (DLT, I, 123; 178).

Asosan “piyoda qo‘shin yoki askar” ma’nosini anglatadigan *yadaγ* so‘zi asl turkchadir. *käd- > käδ- > käy-* kabi ko‘pgina turkiy so‘zlarning tarkibida eski turkiy til davriga kelib *d > δ > y* yoki *d > y* o‘zgaruvi uchrashi ma’lum. *bod > boy; adaq > aδaq > ayaγ; adrïl- > ayrïl-* kabi. Bu jarayonni *yadaγ* so‘zi ham boshdan kechirgan. *yadaγ > yaδaγ > yayaγ > yayov.* “Qutadg‘u bilig”da *yadaγ, yadaγlïγ* istilohlari qayd etilgan. *yadaγlïγ* aynan “piyoda askar yoki qo‘shin” ma’nosini anglatgan: “*Yorïp tägmägü yärkä barma yadaγ*” (QBH, 109_{36}). “Qisasi Rabg‘uziy” matnida uch o‘rinda *yadaγ,* uch o‘rinda *yayaγ* shakli ishlatilgan”[2]: *“yadaγïn tokušup tälimni tamuγga ïtdï* – piyodasi bilan urushib, ko‘pini jahnnamga jo‘natdi” (QR, 246, 20); *“yätmiš miŋ yayaγ Musanï qavdïlar* – yetmish ming piyoda askar Musoni quvdilar” (QR, 115, 8). Leksema boshqirdchada ham *yäyäv*[3] shaklida ishlatiladi. Ushbu so‘z hozirgi o‘zbek tilida *yayov, yaydoq, yaydov,* shuningdek, badiiy nutqda *yaydog‘* shakllarida saqlangan. 1. *yaydog‘* – egar-jabduqsiz, yalang‘och (ot); 2. ko‘chma ma’noda: yap-yalang‘och; hech narsasi yo‘q (O‘TIL, V, 100). So‘zlar oxiridagi tovush o‘zgarishlarini o‘zbek tilida kuzatiladigan *g‘ ~ v /w ~ q (tog‘ – tow – toq* kabi) tovush o‘zgarishi bilan izohlash mumkin.

“Yov, dushman” ma’noli *yaγï* istilohi hozirgi o‘zbek tilida “dushman” ma’nosidagi *yog‘iy* (O‘TIL, II, 58) va “dushman, raqib” ma’nosidagi *yov* (O‘TIL, II, 22) shakllarida saqlangan. Ko‘rinadiki, har ikki leksemaning semalari mushtarak. Bu ikki so‘z tarixan bir leksemaning ikki varianti hisoblanadi. Jumladan, “*yåv* so‘zida bo‘lgani kabi ikkinchi bo‘g‘inlardagi *-agi (ag‘i)* yoki *-agu (ag‘u) > -av* o‘zgarishi turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilida tez-tez uchraydi: *birägü > biräv > biråv; küdägü > küyäv > kÿyåv; kïragï > kïrav > kïrov* kabi”[4]. *yaγï* so‘zida ham xuddi shu jarayon kuzatilgan. Hozirgi o‘zbek tilida *yov* so‘ziga aloqador *yovgarchilik* (jang, urush holati; dushmanlik, o‘zaro adovatda bo‘lishlik), *yov-yov* (yov hujumi, urush), *yovlamoq* (hujum qilmoq), *yovlik* (yovgarchilik; o‘taketgan yirtqich; dushman), *yov-yaroq* (qurol-aslaha), *yovqur* (jasur), *yovqurlik* (botirlik), *yovchi (yog‘chi)* (*ko‘ch. ma’n.* sovchi) leksemalar mavjud (O‘TIL, II, 22-24).

Bitigtoshlarda “qo‘shin, lashkar” ma’nolarida tilga olingan *čärig* istilohi haqida dastlabki fikrlarni ilgari surgan M.Ryasenen so‘zning o‘zagini hozirgi turkiy tillardan misollar keltirish orqali ochib berishga harakat qilgan. Olim so‘zning asosini hozirgi bir qancha turkiy lahjalarda ham mavjud bo‘lgan “jang qilmoq” ma’nosidagi *čär* asosiga bog‘laydi[5]. G.Dyorferning “Hozirgi

[2] *Şirin H. Kül Tigin yazıtı... – S. 247.*
[3] Башкорт теленең һүзлеге. том I. – М.: Русский язык, 1993 – С. 461.
[4] Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki ... – S. 267.
[5] Räsänen M. Versuch Eines etymologischen ... – *S. 106.*

forschadagi turkcha va mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar so‘zligi”da ushbu istiloh “zaxiradagi qo‘shin, mirshab” ma’nolarida izohlangan va u S.Malov tomonidan *čärig*ning qadimiy hind tiliga bog‘lanishiga qo‘shilmaydi[6]. M.Nalbant *čärig* ning genezisini qadimgi turk tilidagi *tar-/tïr-, čär-/čiz-/cïr-, yar-/yïr-*[7] – “chizmoq, bir qator qilib tizmoq” fe’llari bilan bog‘laydi va istilohni proto turkcha *čär-/čiz-* bilan aloqador shaklda izohlashga harakat qiladi. Haqiqatdan ham, ushbu qarash nisbatan asosli bo‘lishi mumkin. Chunki hozirgi bir qancha turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilida ham umumiy bir so‘zning taraqqiy etgan hosilalari bo‘lmish *ter-, tiz-, chiz-* fe’llari borki, ular umumiy ma’noda “kimsa yoki narsalarni birin-ketin yonma-yon qilib termoq, qatorlashtirmoq, saflamoq” ma’nosidadir (O‘TIL, IV, 75, 85). *t~ch, r~z, y~ch, t~y (j)* fonetik o‘zgarishi ko‘pgina turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili uchun ham xos. Jumladan, bu o‘zgarishni *xachir > xatir, ko‘r > ko‘z, yolchi > cholchi, yo‘q > jo‘q, tirtiq > yirtiq* so‘zlarida kuzatish mumkin. Demak, *čärig* termini qadimgi turkiy tilda “termoq” ma’nosini anglatgan va *ter*ning ibtidoiy shakli bo‘lgan *čär-* fe’lidan hosil bo‘lgan va “cherilgan, terilgan (askarlar)” ma’nolarini anglatgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Qolaversa, “Devonu lug‘otit-turk”da *čärik* (o‘g‘uzchaga ko‘ra) “askar, urush safi” (DLT, I, 144-29) va “biror narsaning qarama-qarshi tomoni” (DLT, I, 369) sifatida izohlanadi. “Bu yerda *čärik* urushayotgan ikki tomonning nomidir, chunki ular jangda qarama-qarshi turadi”. Lug‘atda *čärgäšdi* – “saf tortishdi” (DLT, II, 243) va *čärlik(dä)* – “ro‘para(sida)” (DLT, I, 312) leksemalari mavjud bo‘lib, ushbu so‘zlar ma’no hamda vazifa jihatidan *čärik* istilohi bilan aloqadordir va bu so‘zlar (*čärik, čärlik, čärgäšdi*)ning umumiy *čär* o‘zagidan shakllanganini sezish qiyin emas. Qo‘miq tilida ham *cher* va *cheriv* leksemalari mavjud bo‘lib, *cher* – “juft”, *cheriv* – “qo‘shin, lashkar” ma’nolarini ifodalaydi.

Qadimgi turk qo‘shinida vazifador shaxs, boshliqlardan birini ifodalagan *čabïš*ning genezisi diqqatga sazovordir. Jumladan, *“Bilgäsi čabïšï bänäk ärtim*”(To‘n, 7) jumlasidagi “*čabïš* istilohi S.Malov va G.Aydarovlar tomonidan *čab-äs-ï* (dong eshi, yo‘ldoshi) shaklida o‘qilgan”[8]. P.Pelliot xitoy tilida yozilgan matnlarda *čavuš* so‘ziga o‘xshash ba’zi nomlar topilganini qayd etib, VIII asrda turklar tomonidan elchi sifatida yuborilgan shaxsning xitoy manbalarida *Cho-pi-še* unvoniga egaligi va bu *chovush*ning eng qadimgi shakli ekanligini ta’kidlaydi[9]. “*čabïš* istilohi vaqt o‘tishi bilan *čabïš > čaviš > čavuš*ga aylandi”[10]. Istiloh etimologiyasi bo‘yicha bildirilgan yana bir fikrga ko‘ra, *čabïš* asli “bermoq, urmoq” ma’nosini anglatuvchi turkcha *čap-* “chopmoq” fe’lidan kelib chiqqan va ushbu fe’lga *-(ï)š* qo‘shimchasini qo‘shish orqali shakllangan. J.Kloson ham *čabïš* so‘zini turkcha *čap-* “chopmoq” fe’lidan kelib chiqqanligini aytadi va ushbu fe’lni “shoshilinch jo‘namoq, yugurmoq” ma’nolarida izohlaydi[11].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi turkiy til leksikasida tovush siljishi jarayoni til taraqqiyotining muhim fonologik qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. *d > δ > y, g > v, agï > av* kabi o‘zgarishlar ko‘plab leksemalarning tarixiy shakllanishi va keyingi davr turkiy tillaridagi ko‘rinishlarini izohlash imkonini beradi. *kädim, atlïγ, yadaγ, yaγï, čärig, čabïš* kabi leksemalar misolida ushbu jarayonlarning til tizimidagi izchilligi hamda hozirgi o‘zbek tilida ham davom

[6] *Doerfer G. Türkische und Mongolische ... – P. 65-70.*
[7] *Mehmet Vefa N. çerig/çeri sözcüğünün kökeni ve kök ailesi. Pamukkale Üniversitesi, Fen-Edebiyat Fakültesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, 2008 – S. 109-116.*
[8] *Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил... – Б. 72.*
[9] *Pelliot P. Neuf notes sur des questions d'Asie centrale, T'oung Pao, Second Series, Vol.26, No.4-5, 1929. – P. 237.*
[10] Solmaz S. *Çavuş* Unvaninin Kökeni, Anlamlari Ve Türkiye Selçuklulari Döneminde Kullanimi. // Sutad Bahar, 2018. – S. 423-436.
[11] *Clauson G. An Etymological Dictionary ... – P. 394.*

etayotganligi kuzatildi. Demak, tovush siljishi qadimgi turkiy til leksikasining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan fonologik hodisalardan biri sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR

1. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972 – P. 781.
2. Dadaboyev H. Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma – T.: Sahhof, 2021. – B. 8.
3. DLT – Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I-III. – Т.: Фан, 1960-1963.
4. Doerfer G. Türkische und mongolische Elementen in Neupersischen. Aus IV Bd. – Wiesbaden: Franz Steiner Verlag GMBH. – Bd. II. – 1965. – 671 s., Bd. III. – 1967. – 670 s., Bd. IV. 1975. – 640 s.
5. DTS – Древнетюркский словарь. Под ред. В. М. Наделяева, Д.М.Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
6. Dusmurodov M. O‘rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. – T.: Lesson Press, 2025. – 178 b.
7. Eren H. Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü. 1. Baskı. – Ankara, 1999. – S. 86-87.
8. Mehmet Vefa N. çerig/çeri sözcüğünün kökeni ve kök ailesi. Pamukkale Üniversitesi, Fen-Edebiyat Fakültesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, 2008 – S. 109-116.
9. Rasanen M. Versucı eines etymologiscıen Wörterbucıs der Turksprachen. Lexiea Societatis Fenno-Ugricae, – Helsinki, 1969. – S. 106.
10. Şirin H. Eski Türk Yazıtları Söz Varlığı İncelemesi. TDK yayınları. – Ankara. 2016. – 395 s.
11. Şirin H. Kül Tigin yazıtı – notlar. Bilge kültür sanat. – Istanbul. 2015 – S. 247.
12. Solmaz S. Çavuş Unvaninin Kökeni, Anlamlari Ve Türkiye Selçuklulari Döneminde Kullanimi. // Sutad Bahar, 2018. – S. 423-436.
13. Бобоёров. Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми. – Т.: Янги нашр, 2018. – 381 б.;
14. Кызласов И.Л. Материалы к ранней истории тюрков. I. Древнейшие свидетельства об армии. Российская археология. – М.: 1996. – С. 77.
15. СИГТЯ – Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. – М., 2001.
16. Шевчук В.Н. Военно-терминологическая система в статике и динамике. Дисс. д-ра филол. наук. – М., 1985. – С. 19.